



UNIQUE APPROACH TO TEACHING PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Mamatkulova Erkinoy Uktamovna¹

¹ Primary school teacher of school 299 of Shayhantahur district of Tashkent city
mamatqulovaerkinoy@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.5083080>

ARTICLE INFO

Received: 01st July 2021
Accepted: 05th July 2021
Online: 07th July 2021

KEY WORDS

education, ZOOM, online, distance learning, native language, reading, math, fun methods.

ABSTRACT

The essence of this article is a new idea by the teacher to improve the quality of education, the use of methods in the classroom, the necessary recommendations for the use of effective methods and lessons to engage students in the lesson, native language in primary school, reading, a unique approach to teaching mathematics.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA FANLARNI O'QITISHDA O O'ZGACHA YONDASHUV

Mamatqulova Erkinoy Uktamovna¹

¹ Toshkent shahar Shayxontohur tumani
299-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi
mamatqulovaerkinoy@gmail.com

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-iyul 2021
Ma'qullandi: 05-iyul 2021
Chop etildi: 07-iyul 2021

KALIT SO'ZLAR

ta'lim, ZOOM, onlayn, masofaviy ta'lim, ona tili, o'qish, matematika, qiziqarli metodlar.

ANNOTATSIYA

ushbu maqolaning mazmun mohiyati quyidagicha, ta'lim sifatini oshirishda pedagog tomonidan yangicha g'oya, metodlarning dars jarayonida qo'llanilishi, o'quvchilarni darsga qiziqtirishda samarali usullar va mashg'ulotlarni qo'llashda zarur tavsiyalar, boshlang'ich sinflarda ona tili, o'qish, matematika fanlarini o'qitishda o'zgacha yondashuv.

Bugungi kun texnika va texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq. Kundalik turmush hayotimizning har qaysi holatida ro'y berayotgan hodisalar bir tomoni, albatta, zamonaviy uskunalar bilan bog'langan bo'lib qolmoqda. Dunyoning qaysidir nuqtasida bo'layotgan voqealar, yangilik va o'zgarishlardan boxabar bo'lish

uchun soniyalar yetarli xalos. Internet, kompyuter, mobil telefon kabi zamonning eng so'nggi kashfiyotlari insoniyatni hayratga solmasdan qolmaydi.

Ko'rishni istagan insoningizni 1 daqiqada shundoqqina 1 tugmani bosish orqali amalga oshirish mumkin. Buning



barchasi yuqori salohiyat, aql-u zakovat mahsuli.

O'qish, izlanish, ijodkorlik, tinimsiz harakatda bo'lish buyuk inson bo'lib yetishish uchun zamin hozirlaydi. Mana shu bois, keyingi yillarda boshqa sohalar singari ta'limni rivojlantirish uchun bir qancha ishlar olib borilmoqda. Bilim berish sifatini yaxshilash, pedagog xodimlar malakasini oshirish uchun jahon ta'lim tizimini na'muna sifatida o'rganish, hamkorlikda ish olib borish uchun turli xil xalqaro konferensiyalar bo'lib o'tmoqda. Kelajak istiqboli uchun qilinayotgan ishlar zamirida yosh avlodni bilimni yuqori darajaga olib chiqish uchun harakat yotadi. Matkablarda ta'lim sifatini yuqorilash uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Respublikamizning chekka hududlari ham kompyuter texnologiyalari, internet bilan jihozlangan.

Zamon bilan hamnafaslikda ildam qadam tashlash uchun eng so'nggi yangiliklardan doimo xabardor bo'lish lozim. Barcha sohalar singari, ta'lim sohasida ham keyingi yillarda juda katta o'zgarishlar kuzatilmoqda. Chet davlatlari bilan hamkorlikda olib borilayotgan ishlar samarasi o'laroq, sezilarli darajada yuksalishga erishilmoqda desam adashmagan bo'laman. Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan bir qancha qarorlar, ta'lim sifatini oshirishga, yanada takomillashtirishga xizmat qilib kelmoqda. Bolaning maktab dunyosiga kirib kelgan kundan qo'llaridan tutib, qoqilmasdan keyingi bosqichga o'tib olishida boshlang'ich sinf o'qituvchilari asosiy ro'l o'ynaydi. Shu sababli, ular zimmasiga katta mas'uliyat yuklatiladi. O'quvchi bu dargohda dastab qalam ushlab yozishni, o'qishni, matematik savodxonlikni

o'rganadi. Ona Vatanga mehr qo'yishda, bizni o'rab turgan tabiat bilan tanishishda asosiy vositachi o'qituvchi hisoblanadi. O'quvchilar bilan tinimsiz shug'illanish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish uchun turli xil qiziqarli mashg'ulotlar o'tkazib borish, xalq ta'limi vazirligi tomonidan tashkil qilinayotgan onlayn tanlovlarda ishtirok etishga qiziqtirish bilim berish sifatini oshiradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim darajasiga alohida e'tibor berib yondashilmasa keyingi bosqichlarda ta'lim sifati salbiy tomonga o'zgaradi. Kitob o'qishga, kitobxonlikka qiziqtirib borish uchun har bir darsdagi mavzularga bog'lab ertak, hikoya va rivoyatlar o'qib berish lozim. O'qib berilgan ma'lumotga qiziqish uyg'ota olish, o'sha kitobni topib o'qib chiqishga undaydi. Kitob o'qigan bola esa, ezgulikka yaqin, yomonlikdan yiroq, nutqi ravon, fikrini erkin bayon qila oladigan farzand bo'lib yetishadi. Mahorat asosida tashkil qilingan dars o'qituvchining bilim berish sifatini ko'rsatib beradi. O'quvchining egallagan bilimlari asosida pedagogning natijasi kelib chiqadi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili, o'qish va matematika dasrlarini tashkil qilishda juda ko'p qiziqarli metodlar mavjud. Bulardan mohirona foydalanish esa o'qituvchiga bog'liq. Matematikada qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallarini o'rgatishda "Top-top" usulidan, taqqoslash, sholishtirish darslarida "Venn diagrammasi", tartib va sanoq sonlarni o'qitishda "Topqirlar o'yini" usulidan, turli xil masalalarni ishlashda "Sirli sandiqcha" usulidan foydalanish mumkin. Ona tili darslarini o'qitishda asosiy e'tibor og'zaki va yozma nutqni o'stirishga qaratiladi. Shu bois, ko'proq kitob mutolaa qilish, matn



ustida ishlash, gap tuzish, diktant, og'zaki suhbat mashg'ulotlari yaxshi samara beradi. Bundan tashqari "Sinkveyn", "Aqliy hujum", "Zinama zina", "So'z o'yini" mashg'ulotlari ham nutq o'stirishda juda foydali. O'qish fanini o'qitishda esa ertak va she'rlar, rivoyatlar asosida suhbat, rasmlar asosida gapirtirish, har bir mavzudan keyin asosiy g'oya orqali xulosa chiqarishga o'rgatish muhim hisoblanadi. Umuman olganda, har qanday darsda ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'qituvchi astoydil izlanmog'i, yangilik yasratishi va ijodkor bo'lishi lozim. Talabchanlik o'quvchilarni chaqqonlikka, zukkolikka va tezkor bo'lishga undaydi.

Katta bo'lsang kim bo'lasan? Boshlang'ich sinflarda aksariyat o'quvchilar bu savolga: "Katta bo'lsam ustoz bo'laman", - deb javob qilishadi. Chunki ular uchun "ustoz" dunyoni aks

ettirib turuvchi ko'zgu hisoblanadi. Ular butun borliqni shu ko'zgu orqali ko'radi. Mana shu bois, pedagog xodimlar o'z o'quvchilari oldida o'rnak bo'la oladigan darajada namoyon bo'lishi zarur.

Xulosa qiladigan bo'lsak, har bitta ta'lim jarayoni o'zining zamonaviy texnologiyalarga boyligi va yangicha yondashuvlari bilan o'z sifat darajasini ko'taradi. Bugungi kun farzandi texnologiyalar asrida yashamoqda. Mana shu sababli ham, ularni oson hayratlantirish va qiziqtirish mushkul ish. Shu bois, yosh valodni kelajak uchun munosib tarbiyalashda astoydil harakat qilmog'imiz lozim. Buning uchun, tinmay izlanish, harakatda bo'lish va zamon bilan hamnafas malaka oshirib borish zarur. O'qish, izlanish, ijodkorlik, tinimsiz harakatda bo'lish buyuk inson bo'lib yetishish uchun zamin hozirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: O'zbekiston, 1997
2. Ashrapova T., Odilova M. boshlang'ich sinfda ona tili. Toshkent, "Sharq", 1984.
3. Kurbanov Sh.Ye, Seytxalilov Ye. A. Ta'lim sifatini boshqarish. - T.: Shark.
4. ziyonet.uz